

**“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI**

06. Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan, shu jumladan kuzatuv kengashining aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qabul qilingan qarorlar

EMITENTNING NOMI							
1.	To‘liq:			“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati			
	Qisqartirilgan:			“NKMK” AJ			
	Birja tikerining nomi:*			Mavjud emas			
ALOQA MA’LUMOTLARI							
2.	Joylashgan eri:			210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy			
	Pochta manzili:			210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy			
	Elektron pochta manzili:*			<a href="mailto:info@ngmk.uz">info@ngmk.uz</a>			
	Rasmiy veb-sayti:*			<a href="http://www.ngmk.uz">www.ngmk.uz</a>			
MUHIM FAKT TO‘G‘RISIDA AXBOROT							
Muhim faktning raqami:			06				
Muhim faktning nomi:			Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan, shu jumladan kuzatuv kengashining aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qabul qilingan qarorlar				
Yig‘ilish turi:			Kuzatuv kengashi				
Yig‘ilish o‘tkazish sanasi:			2025-yil 24-iyun				
Yig‘ilish bayonnomasi tuzilgan sana:			2025-yil 24-iyun				
Yig‘ilish o‘tkazilgan joy:			Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy				
Yig‘ilish kvorumi:			100%				
№	Ovoz berishga qo‘yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		Yoqlash		qarshi		betaraflar	
		%	soni	%	soni	%	soni
1	Jamiyat ustav kapitalini oshirish va Ustavga bu bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritish.	100	9	0	0	0	0
2	Jamiyatning joriy xo‘jalik faoliyatini ta‘minlash maqsadida 2025-yilda xarid qilinadigan moddiy-texnik resurslarning yillik reja-jadvali va import tovar (ishlar, xizmat)lar ro‘yxatini kelishish.	100	9	0	0	0	0
Yig‘ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to‘liq bayoni:							
1	<p>1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 30-avgustdagi 200/09-2-qr-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2024-yil 21-oktabrdagi 195-son buyrug‘iga asosan “NKMK Jamg‘armasi” DM balansidagi 77 790 455 000,0 (yetmish yetti milliard yetti yuz to‘qson million to‘rt yuz ellik besh ming) so‘m qiymatda baholangan Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘chasi, 12a-uyda joylashgan Jamiyat vakolatxonasi bino va inshootlari (keyingi o‘rinlarda – Vakolatxona) 77 790 455 000,0 so‘m qiymatda Jamiyatga uning ustav kapitalidagi davlat ulushini oshirish hisobiga topishirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida berilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin. 2. Jamiyat tomonidan joylashtirilgan aksiyalariga qo‘shimcha ravishda nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘m bo‘lgan 77 790 455 000,0 (yetmish yetti milliard yetti yuz to‘qson million to‘rt yuz ellik besh ming) so‘m miqdoridagi 77 790 455 (yetmish yetti million yetti yuz to‘qson ming to‘rt yuz ellik besh) dona oddiy aksiyalar joylashtirilsin. Bunda, Jamiyat yagona aksiyadori – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi egaligidagi oddiy aksiyalar soni 77 790 455 donaga ko‘paytirilsin hamda qabul qilingan Mulkiy majmuaning baholangan qiymati va ustavning ko‘paytirilgan miqdori orasida yuzaga kelgan 862,61 so‘m farq Jamiyatning keyingi aksiyalar chiqariluvida inobatga olinsin. 3. Ushbu aksiyalar yopiq obuna orqali Jamiyat yagona aksiyadori – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligiga joylashtirilsin. 4. Aksiyalar “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risida”gi qaror davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab 1 (bir) yil ichida birjadan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bitimlar tuzish orqali joylashtirilsin. 5. “NKMK” AJning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish hamda jamiyatning e‘lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartirish va</p>						

	qo'shimchalar kiritilgan yangi tahrirdagi Ustavi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 6. Korporativ kotibiyat mudiri – Korporativ maslahatchi S.N. Murtazayev “NKMK” AJ Ustavining yangi tahririni o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin. 7. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risida”gi qaror 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 8. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risida”gi qarorni imzolash vakolati Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zosi X.B.Mustafayevga taqdim etilsin. 9. Korporativ kotibiyat mudiri – Korporativ maslahatchi S.N. Murtazayev “NKMK” AJ Ustavining yangi tahriri o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risida”gi qarorni vakolatli davlat organi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlasin.
2	Jamiyatning joriy xo'jalik faoliyatini ta'minlash maqsadida 2025-yilda asosiy faoliyat yo'nalishi bo'yicha xaridlarning reja grafigi 3-ilovaga, 2025-yil I choragi uchun kapital qurilish yo'nalishi bo'yicha reja grafigi 4-ilovaga, 2025-yil I choragida import qilinishi rejalashtirilgan tovar (ish, xizmat)lar ro'yxati 5-ilovaga muvofiq kelishilsin.
	Aksiyadorlik jamiyatining ijroiya organi, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolari foydasiga haq va (yoki) kompensatsiyalar hisoblanmagan.
	Kuzatuv kengashi a'zolari saylanmagan.
	Ustavga kiritilayotgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarning matni:
	6.2. Ustav fondi (kapitali) miqdori 15 077 622 574 (o'n besh milliard yetmish yetti million olti yuz yigirma ikki ming besh yuz yetmish to'rt) dona oddiy aksiyalarga bo'lingan 15 077 622 574 000 (o'n besh trillion yetmish yetti milliard olti yuz yigirma ikki million besh yuz yetmish to'rt ming) so'mni tashkil etadi. 7.1. Jamiyat tomonidan 15 077 622 574 (o'n besh milliard yetmish yetti million olti yuz yigirma ikki ming besh yuz yetmish to'rt) dona oddiy aksiyalar joylashtirilgan. 9.2. Jamiyat ustav fondini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalari miqdori - nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 922 209 545 000.00 (to'qqiz yuz yigirma ikki milliard ikki yuz to'qqiz million besh yuz qirq besh ming) so'm miqdoridagi 922 209 545 (to'qqiz yuz yigirma ikki million ikki yuz to'qqiz ming besh yuz qirq besh) dona oddiy aksiyalardan iborat.

“NKMK” AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktor

Q.S. Sanaqulov

Bosh buxgalter:

J.V. Novikova

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F.I.SH.:

S.N. Murtazayev